
EHTIYOJMAND OILANING MUROJAATI IJOBİY HAL ETILDI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbuslari bilan xalqni eshitish, aholining talab va istaklarini ro'yobga chiqarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Natijada aholining yillar davomida qiynab kelayotgan muammolari asta-sekin o'z yechimini topib, odamlar rahbarlardan, davlatdan rozi bo'lib, orzu - istaklari ro'yobga chiqmoqda.

Aholi murojaatlari bilan ishlash, fuqarolardan kelib tushgan har bir masalani o'z vaqtida ko'rib chiqish va ijobiy yechim topish sektor rahbarlaridan alohida mas'uliyatni talab etadi. Bugungi kunda "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" tamoyiliga asoslanib, ish olib borilmoqda. Fuqarodan murojaat kelib tushdimi, uning ijobiy yechimi albatta shu hudud aholisining foydasi uchun muhim hisoblanadi.

Rishton tumani sektor rahbarlari tomonidan hududlarda aholi bilan uchrashib, muammolarini hal etish borasida keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Anhor buyi" MFY Baxtiyor ko'chasida yashovchi Z.Solieva bir necha kun oldin uyini ta'mirlab berish bo'yicha murojaat qilgan edi. Uning ushbu murojaati yuzasidan homiylar yordami bilan uyi ta'mirlanib, berildi.

- Hukumatimiz rahbarlari tomonidan biz kabi ehtiyojmand oilalarga berilayotgan g'amxo'rliklardan boshim osmonga yetdi. Mening murojaatimni ijobiy hal qilib bergan rahbarlarga minnatdorchilik bildiraman, deydi Z.Solieva.

Tumanimizda aholining turli qatlamlari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni kengaytirish, mavjud muammolarni aniqlash, ularni bevosita joyida bartaraf etish yuzasidan aniq va tezkor choralar ko'rilmogda.

2022-12-19 10:42:50